

**BUGUNGI KUNDAGI ZAMONAVIY VA MUHIM KASBLAR****HAQIDA TUSHUNCHA****Mahmudov Sobirjon Zokirjon o'g'li**

Namangan viloyati Chust tuman

25-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi zamonaviy kasblar va ularning inson hayotidagi ahamiyati haqida kerakli ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kasb, zamonaviy kasblar, dizayner, bugalter, menejer, shaxs.

Kelajak uchun eng yaxshi kasb qaysi? Yaqin 10 yil ichida qay bir sohadan kattaroq daromad topish mumkin? Bugungi kunda qanday mutaxassislarga talab kuchliroq? Bu savolga javob izlayotganda, avvalo, avtomatlashtirish yoki muqarrar ravishda sun'iy intellekt rivojlanishi bilan almashtirilishi mumkin bo'lgan kasblardan qochish lozim. Sababi, texnologiya rivojlanishi bilan mazkur yo'nalishdagi ishlar o'z ahamiyatini yo'qota boshlashi mumkin. Ma'lum bir ishning dolzarbligiga turli omillar ta'sir qiladi: doimiy rivojlanish, yangi mashina va robotlarning yaratilishi orqali inson hayotining yaxshilanishi, qo'l mehnati orqali bajariladigan bir qancha amallar o'rnini texnika bajarishi, sun'iy intellekt takomillashishi va hokozolar.

Uzoq kelajakda qaysi kasbga talab yuqoriroq bo'lishini avvaldan aytish biroz qiyin. Biroq yaqin 5 yil ichida yuqori trendda bo'lishi kutilayotgan kasblarni sanab o'tishimiz mumkin. Loyiha menejerlari Hozirda har bir kompaniya o'ziga tegishli loyihalarini ishlab chiqish jarayonini boshqarish uchun malakali loyiha menejeriga ega bo'lishni istamoqda. Bugungi kunda loyiha menejerlariga talab har doimgidanda yuqori. Odatda, kompaniyalarda bir vaqtning o'zida bir nechta dasturlar ishlaydi va loyiha menejeri ko'p



vazifani bajarish va bajartirishga mas'ul shaxs hisoblanadi. Loyiha menejerlari loyiha asosiy maqsadlari va ko'lamini aniqlash, rivojlanishning yaxlit rejasini tuzish, ijro bosqichida jamoani boshqarish, loyiha yakuniy yopilishiga bosh-qosh bo'ladi. Buxgalter Daromad va xarajatlarni kuzatishda, ularning qonun hujjatlariga muvofiqligini taminlashda, investorlarga, menejment va hukumat vakillariga biznes qarorlarini qabul qilishda zarur bo'lgan miqdoriy moliyaviy malumotlarni taqdim etishga yordam beruvchi soha buxgalteriya hisoblanadi. Shuningdek, buxgalteriya hisobini yuritish korxonaning moliyaviy operatsiyalarini muntazam va batafsil ro'yxatga olishni anglatadi. Ahamiyatlisi, buxgalterlarga talab doimiy tarzda mavjud bo'ladi. Chet tillaridan birortasini bilsangiz, masofadan turib kattaroq so'mmadagi maosh to'laydigan bir necha kompaniyada bir vaqtning o'zida buxgalter sifatida faoliyat yurita olishingiz ham mumkin!

Dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisi (Software manufacturer). Bilamizki, ushbu kasb IT (axborot texnologiyalari) sohasidagi juda mashhur va yaxshi haq to'lanadigan ish hisoblanadi.

Virtual haqiqat dizayneri (VR designer). VR minigarnituralar va boshqa gadjetlarga talab katta ekanligi o'z-o'zidan ushbu yo'nalishda faoliyat yurituvchi dizaynerlarga kelajakda yaxshi daromad topish mumkin bo'lgan ish o'rinlarining mavjud bo'lishiga ishora hisoblanadi.

Marketing bo'yicha mutaxassis. Marketing tadqiqotlari - bu kelajakda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan sohalardan biri sanaladi, sababi kompaniyalar doimiy tarzda yanada ko'proq rivojlanish va kattaroq natijalarga erishishga intilishadi. Mazkur jarayonlarning samarali tarzda amalga oshirilishida esa bevosita marketing tadqiqotlarining o'rni beqiyos sanaladi.

Bunda tovar va xizmatlarini innovatsion usullar bilan targ'ib qilish va brend, imijni yaratadigan, saqlaydigan va obro'sini oshiradigan kasb egalari ham marketologlar safiga qo'shilib ketadi.



Kelajagingiz uchun eng yaxshi ish o‘rinlari haqida o‘ylaganingizda, avvalo, kasbning jamiyatda tutgan o‘rni qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘zingizning qobiliyatlaringiz va qiziqishlaringizni ko‘proq inobatga olganingiz ma’qul. Sababi, har qanday ishni san’at darajasida qila olish uchun uni yaxshi ko‘rib bajarish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat uchun keraksiz kasbning o‘zi yo‘q. Istalgan kasb obro‘cini oshirish unda faoliyat yuritayotgan shaxslarga bevosita bog‘liqdir, desak, adashmaymiz!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri”. Toshkent. Xalq merosi. 1993-yil
2. E.G’oziyev “Ontogenez psixologiyasi”. 2010-yil.
3. E, G’oziyev “Shaxs psixologiyasi” 2004-yil
4. WWW.ziyonet.uz
5. WWW.kasbiyyetuklik.uz